O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

HUZURIDAGI AFG‘ONISTON FUQAROLARINI

O‘QITISH TA’LIM MARKAZI

XALQARO ALOQALAR BO‘LIMI

2020 YIL DAVOMIDA AMALGA OSHIRILGAN

ISHLAR BO‘YICHA

HISOBOT I

TERMIZ-2020

XALQARO ALOQALAR BO‘YICHA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR

Markazda 2020 yilda jahonning yetakchi mamlakatlari va Afg‘oniston Islom Respublikasidan bir guruh mas’ul rahbarlar hamda ommaviy axborot vositalari tashrif buyurdilar.

2020 yil 3 fevral Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markaziga Koreya respublikasining O‘zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Kan Chje Kvon boshchiligida delegatsiya tashrif buyurdi.

- Tashrif davomida mehmonlar markazda talabalar uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishish hamda ta’lim muassasasi rahbariyati va talabalar bilan uchrashuv o‘tkazish;

- Koreyaning mutasaddi tashkilotlari imkoniyatlari orqali kelgusida markazda turli sohalarda qisqa muddatli o‘quv kurslarini tashkillashtirish va moliyalashtirishda amaliy yordam berish;

- Markazda “Akusherlik va hamshiralik ishi” va “Yer usti transport tizimlari va ularning eksplutatsiyasi” informatsion texnologiyalar xonasi AT auditoriyalarini zaruriy o‘quv jihozlari bilan ta’minlash kabi masalalar ko‘rib chiqildi.

Elchi janoblari O‘zbekiston Respublikasi Prezdentining Administratsiyasi taklifiga binoan Surxondaryo viloyatida informatsion texnologiyalar va qishloq xo‘jaligi sohasida yaqindan o‘zaro hamkorlikni yo‘lga quyish niyatligida ekanligini bildirdi. Shuningdek Markazga zarur bo‘lgan o‘quv jihozlari va qisqa muddatli malaka oshirish kurslarini tashkil qilish uchun markaz rahbariyatidan taklif va fikrlar so‘radi.

Markaz direktori ta’lim muassasasi faoliyatini yanada rivojlantirish, bunda xorijiy hamkorlar tomonidan ajaratiladigan budjet mablag‘lari o‘ta muhimligini yana takrorlagan holda, Kan Chje Kvondan quyida keltirilgan takliflarni ijobiy hal qilinishida amaliy yordam berishini so‘radi:

- Informatsion texnologiyalar xonasi AT auditoriyalarini zaruriy o‘quv jihozlari bilan ta’minlash;
- Tibbiyot xonasini genekologiya hamda stomatologiya uskunalari bilan jihozlash;
- Temir yo‘l va yengil avtomobil haydovchilarini tayyorlovchi o‘quv xonalarini avtosimulyator bilan ta’minlash;





• Koreys tilini o‘rgatish bo‘yicha kurslar tashkil qilish va mutaxassislar bilan ta’minlash;

• TTJda talabalar bo‘sh vaqtini maroqli o‘tkazish uchun fitnes klubini tashkil etish.

Berilgan takliflar yuzasidan elchi janoblari o‘z minatdorligini bildirdi va bizning Surxondaryo viloyati va Markazga kelishimizning asosiy maqsadi informatsion texnologiyalar va qishloq xo‘jaligi sohasini rivojlantirishda yaqindan hamkorlik qilishdir. Markaz haqidagi taklif va fikrlaringizni inobatga olib, imkon darajasida yordam berishga harakat qilishini bildirdi .

2020 yil 6 fevral kuni Slovakiyaning O‘zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Bori Yan rasmiy tashrif bilan Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazi faoliyati bilan yaqindan tanishdi. Elchi o‘quv markazida Afg‘oniston talaba yoshlarini o‘qitish uchun davlat ta’lim standartlari talablariga javob beradigan o‘quv auditoriyalari, labaratoriyalar,talabalar turar joylari, oshxonalar, darsdan tashqari to‘garaklar uchun yaratilgan sharoitlarini ko‘rib, yuqori baholadi.Shu o‘rinda markaz faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha Slovakiya davlati tomonidan 10.ming yevro miqdorida beg‘araz yordam ko‘rsatilganligi va bu mablag‘lar hisobidan markazga mini tipografiya,fotoapparat xarid qilinganligi hamda 2 xona ajratilganligini e`tirof etib bundan keyin ham Xalqaro hamkorliklarni rivojlantirish bo‘yicha o‘z takliflarini bildirdi. Bori Yan markazda ajratilgan hamkorlik xonasi ochilish marosimida ishtirok etdi.

Markazda tahsil olayotgan talabalar bilan uchrashib, ular tomonidan bildirgan savollarga javob berdi va talabalar tomonidan berilgan takliflarni inobatga olgan holda doimiy ravishta Slovakiya davlati qo‘lab quvatlashini ta`kidladi.Markaz rahbariyati ko‘rsatilgan beg‘araz yordam uchun o‘z minatdorchiligini bildirdi va markazni rivojlantirish bo‘yicha doimiy hamkorlik qilish maqsadida o‘z taklif va mulohazalarini berdilar.





2020 yil 29 fevral kuni Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Termiz filiali hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazi o‘rtasidagi hamkorlik memorandumi imzolandi





Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Termiz filiali va Markaz o‘rtasida o‘qituvchilarini malakasini oshirish, o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va o‘quvchilarga ta’lim berish, o‘qituvchilarini va talabalarini markazga yuborish kabi o‘zaro ma’naviy resurslardan foydalanish, Oliy ta’limda o‘qitish imkoniyatlarini oshirish bilan bog‘liq axborot va kadrlar almashinuvi, sifatli o‘qish jarayonlarini tashkil etish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, ilmiy, ma’naviy-ma’rifiy, sport, va ommavviy tadbirlarda o‘zaro hamkorliklar bo‘yicha shartnomasi imzolandi.

2020 yilning 2 mart kuni Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazi hamda Koreya Respublikasi xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA)ning O‘zbekistondagi vakolatxonasi o‘rtasida o‘zaro hamkorlik to‘g‘risida anglashuv memorandumi imzolandi.

Tadbir doirasida Koreya Respublikasi xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA)ning O‘zbekistondagi vakolatxonasi direktori Son Song Il dunyoda muqobili yo‘q mazkur ta’lim muassasasida bo‘lib afg‘onistonlik yoshlar uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi. Zamonaviy markazda qo‘shni davlatdan kelib, ta’lim olayotgan talaba-yoshlar bilan uchrashib, suhbatlashdi.





Ikki tomonlama imzolangan anglashuv memorandumi kasb-hunar ta’limi sohasini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va o‘quvchilarga ta’lim berish bo‘yicha o‘zaro hamkorlikni joriy etadi. Ko‘ngillilarini yuborish orqali afg‘on yoshlariga axborot- kommunikatsiya texnologiyalari bo‘yicha koreys tilini o‘rgatish ko‘zda tutilmoqda. Markazning kasb-hunarga o‘qitish imkoniyatlarini oshirish bilan bog‘liq axborot va kadrlar almashinuvi yo‘lga qo‘yiladi. “Koreya madaniy markaz”ini tashkil etish rejalashtirilgan.

2020 yilning 3 mart kuni Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markaziga Hindiston davlatining O‘zbekistondagi elchisining ikkinchi kotibi Aditi Valundj hamda O‘zbekistondagi Hindiston Madaniyati markazi direktori professor Chander Shekharlar tashrif buyurdilar. Dastlab, mehmonlar Markaz faoliyati bilan to‘liq tanishib chiqib, talabalar bilan suhbatlashdilar. Markaz kutubxonasiga Hindiston fotoalbomini tuhfa qildilar. So‘ngra markaz rahbariyati va mehmonlar bilan muzokaralar bo‘lib o‘tdi. Professor Chander Shekhar ushbu markazda yaratilgan sharoit va imkoniyatlarda mamnunligini ta’kidlab, kelgusida Hindiston davlati tomonidan markazning moddiy texnik bazasini yanada mustahkamlash hamda o‘kitish tizimlari buyicha doimiy hamkorlik aloqalari kelishib olindi.





2020 yilning 9 mart kuni Markazga Germaniya Federativ Respublikasining Konrad Adinauer va Fridrix Ebert fondlarining Markaziy Osiyo davlatlari bo’yicha rahbarlari tashrif buyurishdi





Germaniya Federativ Respublikasidan:Ronni Xayne, Kristof Morlar markazda yaratilgan sharoitlar bilan tulik tanishib chikdilar.

Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazida afg‘on yoshlari uchun tahsil olish va yashash sharoitlari bilan tanishish, shuningdek Markazda Afg‘oniston Islom Respublikasida bojxona, tibbiyot, temir yo‘l va tadbirkorlik, turizm sohlarida faoliyat yuritayotgan AIR fuqarolari uchun qisqa muddatli o‘quv kurslarini tashkil etish buyicha takliflar kelishib olindi.





2020-yil 15- oktabr kuni Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazi hamda AQShning Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) vakillari bilan o‘zaro hamkorlik masalasi yuzasidan bo‘lib o‘tgan video konferensiya bo’lib o’tdi.

Video konfenrensiyada AQShning Xalqaro taraqqiyot agentligining tadbirkorlik va biznes muhitini rivojlantirish loyihasi **(FGI)** boshlig‘i **Filip Stoyanovich**, loyiha boshqaruvchisi **Azamjon Babaxodjaev**, sherikchilik bo‘yicha mutaxassis **Sanjarbek Toshtemirov**, CTJ loyihasi boshqaruvchisi **Alfiya Musina** hamda Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazidan markaz direktori **O.Ro‘ziev**, direktor o‘rinbosari M.Xalmuratov, bo‘lim boshliqlari T.Toshev va N.Xo‘jamurodovlar ishtirok etishdi.

Video konfenrensiya davomida AQShning Xalqaro taraqqiyot agentligining tadbirkorlik va biznes muhitini rivojlantirish loyihasi (FGI) boshlig‘i Filip Stoyanovich, Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazining taklifiga binoan Afg‘oniston fuqarolari, markaz hodim va talabalari, afg‘onistonlik yoshlar hamda ayol hunarmandlar uchun axborot texnologiyalari (IT), ingliz tili, yengil sanoat, hunarmandchilik, ichki turizm kabi yo‘nalishlarda qisqa muddatli kurslar tashkil etish haqidagi taklifni qo‘llab-quvvatlashligini bildirib o‘tdi.

CTJ loyihasi boshqaruvchisi Alfiya Musina o‘z ma’ruzasida **USAID** tomonidan markaz bilan hamkorlikda amaliy ishlar faoliyatini amalga oshirish yuzasidan bir nechta yo‘nalishda qisqa muddatli kurs va seminar treninglar loyihalari ishlab chiqish uchun tayyorligi haqida aytib o‘tdi.

Jumladan,

1. Ingliz tili kurslari
2. Axborot texnologiyalari (Dasturlash)
3. Ichki turizm
4. Yengil sanoat
5. Hunarmandchilik kabi kurslar tashkil etishda amaliy yordam beramiz deya ta’kidladi

Bundan tashqari, Afg‘oniston tadbirkorlari uchun markazda afg‘onistonlik ayol hunarmandlarining o‘z maxsulotlarini sotish bo‘yicha o‘zaro uchrashuvlar (vebinar) tashkil etish.

Shuningdek, **USAID** tomonidan O‘zbekiston va Afg‘oniston savdo iqtisodiy aloqalarini izchil rivojlantirish maqsadida, ikki davlat tadbirkorlari uchun markazda seminar-treninglar loyihalarini tashkil etishligi haqida ta’kidlab o‘tdi.





2020 yilning 23 oktiyabr kuni AQSh Xalqaro ta’lim kengashining O’zbekistondagi direktori Villiyam Oroark va AQSh Xalqaro ta’lim kengashining vakilli Shaxnoza Suyarovalar Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markaziga tashrif buyirishdi.

Uchrashuv davomida AQSh Xalqaro ta’lim kengashining O’zbekistondagi direktori Villiyam Oroark Markazning O’zbekiston va Afg’oniston Respublikalari o’rtasida turli sohalarda hamkorlikni amalga oshirishda asosiy muassasalardan biri ekanligini takidladi. Shuningdek AQSh Xalqaro ta’lim kengashining bundan kiyingi faoliyatida markaz bilan hamkorlikda yangi loyihalar bo’yicha o’z takliflarini bildirdi. Bildirgan takliflarda asosan Afg’oniston Islom Respublikasidan tashrif buyurgan talabalarga iqtisodiy, turizim, kompiyuter texnologiyalar va ingliz tili sohasidagi bilimlarni oshirish uchun qisqa muddatli kurslar tashkil etilishi lozimligi ta`kidlandi.





2020 yil 1 noyabr kuni Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazida ta'lm olayotgan talabalar “Hayraton” chegara-bojxona postidan kutib olindi. Ushbu tadbirda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining birinchi o‘rinbosari O‘.Salomov, Surxondaryo viloyat hokimining o’rinbosari Ch.Begimqulov, Afg‘oniston Islom Respublikasining Termiz shahridagi konsulik vakili Muxtor Azimiy hamda Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazi jamoasi ishtirok etdilar.



2020 yil 18 noyabr kuni AQShning Xalqaro taraqqiyot agentligining tad birkorlik va biznesni rivojlantirish bo‘yicha mutaxassis Sanjarbek Toshtemirov, AQShning Xalqaro taraqqiyot agentligining vakili Oybek Boltaev Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markaziga tashrif buyirishdi.



Uchrashuv davomida AQShning Xalqaro taraqqiyot agentligining sherikchilik bo‘yicha mutaxassis Sanjarbek Toshtemirov Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazining taklifiga binoan Afg‘oniston fuqarolari, markaz hodim va talabalari, afg‘onistonlik yoshlar hamda ayol hunarmandlar uchun axborot texnologiyalari (IT), ingliz tili, yengil sanoat kabi yo‘nalishlarda qisqa2 hamda 4 oylik kurslar tashkil etish haqidagi taklifni qo‘llab-quvvatlashligini bildirib o‘tdi.

AQShning Xalqaro taraqqiyot agentligining vakili Oybek Boltaev o‘z ma’ruzasida **USAID** tomonidan markaz bilan hamkorlikda amaliy ishlar faoliyatini amalga oshirish yuzasidan bir necha yo‘nalishlar bo`yicha qisqa 2-4 oylik qisqa muddatli kurs va seminar treninglar o`tkazish uchun tayyorligi haqida to`xtalib o`tdi.

Jumladan,

Axborot texnologiyalari (Dasturlash),Ingliz tili kurslari,Yengil sanoat kabi kurslar tashkil etishda amaliy yordam beramiz deya ta’kidladi.





2020 yil 20 noyabr kuni Germaniya Federativ Respublikasining “Management4helth GmbH” konsalting kompaniyasi ekspertlari - doktor Mixael Nixsial va loyiha rahbari Korneliya Bekker hamda ushbu kompaniyaning boshqa vakillari Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markaziga tashrif buyurdilar.

Uchrashuv davomida doktor Mixael Nixsial tashrifning asosiy maqsadida sifatida Surxondaryo viloyati hududida o‘rta tibbiyot xodimlarini o‘qitish va malakasini oshirish ehtiyojlari, o‘quv markazi va talabalar turar joyi uchun yangi binolar qurish yoki qayta qurish, Afg‘onistonning o‘rta tibbiyot xodimlari va talabalarini o‘qitish bilan bog‘liq imkoniyatlarni o‘rganib chiqish ekanligini e’tirof etdi.

Shuningdek, dr. M.Nixsial ushbu loyihani moliyalashtirish vazifasi Germaning KFW federal banki va “GIZ” xalqaro tashkiloti tomonidan yuklatilganligini alohida ta’kidladi.

Shu bilan birgalikda dr. M.Nixsial ushbu loyiha asosan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bo‘lgan o‘rta bo‘g‘im tibbiyot hodimlarini o‘qitish va malakasini oshirishga yo‘naltirganligini hamda Surxondaryo viloyati AIRdan tashqari qo‘shni Tojikiston va Turkmaniston Respublikalari bilan chegaradoshligini inobatga olgan holda, ushbu davlat fuqarolarini ham jalb qilish mumkinligini e’tirof etdi.

Bundan tashqari horijiy mehmon, Markazdagi talabalar uchun yaratilgan shart-sharoitlar kelib chiqib, ushbu loyihani ta’lim markazi bazasida amalga oshirish ehtimoli mavjudligini ham alohida aytib o‘tdi.
Olib borilgan muzokaralar davomida, kelgusida tashkil qilinishi rejalashtirilayotgan o‘quv markazi, Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazi bilan hamkorlik qilishi davomida, Markazni tibbiyot sohasi uchun zarur bo‘lgan o‘quv labaratoriyalarini yaratish hamda tibbiyot jihozlari bilan ta’minlanish imkoniyatini berishi xususida ham to`xtalib o`tdi.





2020 yil 23 noyabr kuni AIR Oliy ta’lim vazirligining birinchi o‘rinbosari Abdul Tavob Bolokarzay ,AIR Oliy ta’lim vazirligining xalqaro aloqalar bilan ishlash bo‘lim boshlig‘i Nur Muhammad Oxunzoda,AIR Oliy ta’lim vazirligining nazorat boshqarma boshlig‘i Xon Muhammad Naimi,AIR Oliy ta’lim vazirligining nazorat boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari Gul Muhammad Bosil,Afg‘oniston Islom Respublikasining Termiz shahridagi konsulining II-kotibi Muxtor Azimiylar markaziga tashrif buyurdilar





2020 yil 26 noyabr kuni Hindiston Respublikasining O‘zbekistondagi elchisi Manish Prabxat, hind madaniyati markazi direktori Chander Shekxar, mudofaa masalalari bo‘yicha harbiy attashe Nipun Anand va tarjimon Hamidova Yulduz hamda Surxondaryo viloyati hokimi o‘rinbosari Chori Begimqulovlar Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markaziga tashrif buyurdilar. Uchrashuv davomida Manish Prabxat

tashrifning asosiy maqsadi sifatida Surxondaryo viloyati hududida Hindiston hukumati ishtirokida barpo etilayotgan va jihozlanishi rejalashtirilayotgan ijtimoiy ob’ekt (*shifoxona*) hududi bilan tanishish hamda Termiz davlat universitetida Hind o‘quv xonasining ochilishida ishtirok etish ekanligini e’tirof etdi.

Shuningdek, M.Prabxat Markazdagi o‘quv auditoriyalari va talabalar bilan uchrashganidan so‘ng, kelgusida ta’lim muassasasi hududida Hindiston o‘quv xonasini tashkil etish va jihozlash, “Yer usti transportlari tizimi va ularning ekspluatatsiyasi” va tibbiyot yo‘nalishlari bo‘yicha darsliklar bilan ta’minlash xususida loyiha tayyorlash bo‘yicha ta`kidlab o‘tdi.



